

## NODIRABEGIM FORSIY IJODINING BADIY TALQINI

Abdullaeva Nargiza Nasilloevna

Olmalik shahar kasb -hunar maktabi,

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7426031>

**Annotasiya.** XIX asrning birinchi yarmida yashab qalam tebratgan Qo'qon adabiy muhiti o'zbek shoirasi: Nodira singari iste'dodli shoira Zebunnisobegim she'riyatidan nimanidir o'rgangan, unumli foydalangan. Har qaysi shoira ishq, firoq, hijron va ayriliq mavzularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, ezgulikni sevishga olishga o'rgatganlar.

**Kalit so'zlar:** adabiy muhit, radifli g'azal, bayt, lirika, ruboiy, vazn.

Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, yetuk vatanparvarlar, mashhur olimalar bilan bir qatorda so'z san'atining g'ururu iftixori sanalgan shoirlar ham bor. O'z davr an'anasiga ko'ra Hindistonda fors-tojik tilida ijod qilgan sharqning mashhur shoirasi Zebunnisobegim va XIX asr birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhiti o'zbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar shular jumlasidandir.

Shoira Mohlaroyim Nodira dunyoqarashining takomilida o'zi mansub bo'lgan islom dunyosining ma'naviy ta'siri katta. Shoira devonida Alloh taolo, payg'ambar alayhissalom betakror badiiyat bilan vasf etiladi. Tarixiy obrazlar teran mazmun mutanosibligida talqin qilinadi. Bu shoiraning kalom ilmini, islom dini va millatimiz tarixini chuqur bilganidan dalolat beradi. Devon tartib berar ekan, u mavjud an'anaga muvofiq debochani hamd va na'tlar bilan boshlaydi. Ma'lumki, na't g'azal deb Muhammad payg'ambar maqtoviga bag'ishlangan g'azallarga aytiladi. Nodira ijodiyotidagi na't she'rlar ham asosan, vasf, me'rojnoma va shafolat-faxriya mazmunida. Ularda Muhammad payg'ambarning so'nggi payg'ambar ekanligi, olam u tufayli yaratilganligi, qiyomat kunida payg'ambar shafoti bois ummatlarining barcha gunohlari kechirilishi ohorli mazmun va betakror tashbehlar vositasida ifodalanadi.

Ahmad (Muhammad) Haq taoloning do'stidir, Ikki olam uning nuridan namoyondir. Gunohlar zulmatidan ne qo'rqinch bo'lsin,

Axir (Muhammad payg'ambar) jamolining quyoshi porlagan-ku! Mana bu misralar ham koinot sarvari na'tida Nodiraning o'ziga xos nazm namunalari yaratgani isbotidir:

Muhammadkim, nabilar xotamidur,

Bisoti lam'i Alloh mahramidur.

Agar har kimsakim tab'iyat aylar,

Saodatning savobi a'zamidur.

Ikkala she'r mohiyatan bir-birini to'ldiradi. Birinchisida Nodira Muhammad alayhissalom Haq taoloning habibi, ikki olam uning nuridan paydo bo'lgan, uning jamoli quyoshdek hamma yerni yoritib turganda, ma'siyat qorong'iligidan qo'rqinchga o'rin qolmaydi, deb rasuli akramni ulug'laydi. Shoiri bu o'rinda dastlab islom dini aqidasiga ko'ra, olam Muhammad payg'ambar tufayli yaratilgani, unga ummat bo'lish nechog'lik sharafli ekani, Rasuli akramning qiyomat kunida o'z ummatlariga shafe'ligi, jumladan, Nodira ham o'sha ummatlar qatorida shafotdan umidvorligi ifodalanadi.

Munojot g'azaldan olingan mana bu baytda Muhammad payg'ambarning qiyomat kunida o'z ummatlarining gunohini Tangridan so'rovchi shafe'ligi bilan bog'liq qarashlar o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, Nodira o'zining gunog'kor ekanligini aytib, Yaratgandan Muhammad payg'ambarning haqqi hurmati bandalari, jumladan, o'z gunohlarini kechirishni so'raydi:

Ey Xudo, Ahmadi Muxtorning urug'-aymog'lari haqqi, Kibriyolik lutfing bilan bandalaring gunohini kechir.

Mohlaroyim ijodida xulafoi roshidin vasfiga bag'ishlangan she'rlar ko'p bo'lmasa-da, ularning fazilati, islom dini rivojidagi xizmatlari vasf etilgan misralarni uchratish mumkin. Masalan, mana bu ruboiyda dastlabki to'rt xalifa-islomning ilk davrlarida Abu Bakirning Muhammad alayhissalomga hamrohlik qilib, mushriklardan qochib g'orga yashirinish voqeasi, hazrati Umarning odilligi, Usmon va Alilarning dinni mustahkamlash yo'lidagi xizmatlari tasvirlangan:

Erdi Bubakr yori g'or anga,  
Umar adl etti ustuvor anga,  
Qildi Usmon charog'idin ravshan,  
Murtazo erdi do'stivor anga.

Umuman, Nodiraning na't va manqabat she'rlarida Muhammad payg'ambarning fazilatlari, yaqinlarining islom tamadduni yuksalishi-dagi xizmatlari o'ziga xos pafos hamda ohorli tashbehlar vositasida ifodalangan.

Darhaqiqat, Zebunnisobegim an'alarining hayotbaxsh ruhi va ta'siri XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhiti o'zbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barno-larning bir qancha g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrdagi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu shoiralarning she'rda tilning sodda va ranginligi uchun zahmat chekishlarini Zebunnisobegimga bir iz-doshlik harakati, desa aslo xato bo'lmaydi. Ular g'azallarida Zebunni-sobegim qo'llagan vaznlar, ko'p iboralar, u g'azallar asosiga olingan ishq, may, do'stlik, hajr, firoq, hijron mavzulari, avtobiografik mavzu va boshqalar keyingi o'zbek shoiralari, xususan, she'riy devon yarat-gan Uvaysiy,

Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar tomonidan rivojlantirildi, chuqurlashtirildi, nihoyasiga yetkazildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keyingi davrlarda yashab qalam tebratgan iste'dodli o'zbek shoirlarining ko'pchiligi Zebunnisobegim she'riyatidan nimanidir o'rgangan, boshqa bir madaniyat yutuqlaridan unumli foydalangan.

Har qaysi shoira ishq, may, do'stlik, hajr, firoq, hijron va ayriliq mav-zularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, hayotni, ezgulikni sevishga, qiyinchiliklarga qarshi tura olishga o'rgatganlar. Ular kuylagan muhabbat, ularning hayoti barchaga ibratlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uch shoira. –Toshkent: 1958. 5- bet.
2. O. Sharafiddinov. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Tom II. –Toshkent: 1945. - 191
3. Majmuat ush-shuaro. Sharqshunoslik universiteti qo'lyozmasi. № 3371, varaq 8. 6.